

---

## **BOLALAR O'RTASIDA SPORT MUSOBAQASI O'TKAZILDI**

Toshloq tumanidagi 2-umumta'lim maktabida 1-iyun "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan 8 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida sportning shaxmat-shashka, stol tennisi turlari bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

"Mahalla" xayriya jamoat fondi hamda "Nogironlar" jamiyati tuman bo'limlari, "Barkamol avlod" markazi, "Bolalar sport" maktablari bilan hamkorlikda tashkil etilgan sport o'yinlarida 40 nafardan ziyod bolalar ishtirok etdi.

O'zaro muvofiq shu bilan birgalikda qiziqarli jarayonlarga boy bo'lgan musobaqa yakunida ishtirokchilarga sovg'alar topshirilganligi bolajonlarga haqiqiy bayram kayfiyatini ulashdi.

2023-05-24 16:43:22